

O'QUVCHI BILIMINI BAHOLASH TA'LIM JARAYONINING TARKIBIY QISMI SIFATIDA

Annotatsiya. Maqolada bugungu kunda mamlakatimiz ta'lim tizimida o'quvchilar bilimini baholashdagi muammolar rivojlangan mamlakatlarda o'quvchilar bilimini baholash tizimi misolida tahlil qilingan va mavjud muammolarni bartaraf etish bo'yicha taklif va tavsiyalar bayon etilgan. O'quvchi bilimini baholash ta'lim jarayonining tarkibiy qismi sifatida o'quvchini bilim olishga bo'lgan motivatsiyasini kuchaytirishi ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim tizimi, baholash, baholash mezonlari, bilim, ta'lim sifatini, kompetensiya, didaktika, validlik.

ОЦЕНКА ЗНАНИЙ УЧАЩИХСЯ КАК КОМПОНЕНТ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА

Аннотация. В статье анализируются вопросы, связанные с оцениванием студентов в системе образования нашей страны, путем изучения систем оценки в развитых странах. Также предоставляются предложения и рекомендации по решению существующих проблем. Подчеркивается, что оценивание знаний студентов, как компонент образовательного процесса, может повысить мотивацию студентов к получению знаний.

Ключевые слова: система образования, оценивание, критерии оценки, знания, качество образования, компетенции, дидактика, достоверность.

ASSESSMENT OF STUDENT KNOWLEDGE AS A COMPONENT OF THE EDUCATIONAL PROCESS

Abstract. The article analyzes the issues related to student assessment in our country's education system by examining assessment systems in developed countries. It also provides suggestions and recommendations for addressing existing problems. It highlights that assessing student knowledge, as a component of the educational process, can enhance students' motivation to acquire knowledge.

Keywords: education system, assessment, assessment criteria, knowledge, education quality, competence, didactics, validity.

Kirish. Baholash – nafaqat o'zlashtirilganlik saviyasini, balki o'quvchilar ichida iqtidor va qobiliyatga ega bolalarni ham aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa, o'quvchilarni muntazam ravishda turli olimpiada va xalqaro tanlovlarda qatnashib, ko'pgina yutuqlarga erishishlari uchun zamin yaratibgina qolmay, kelajakda o'z kasbining yetuk bilimdoni, har sohada kerakli kadrlar bo'lishlari uchun poydevor yaratadi. Baholash o'quvchilar umumta'lim fanlaridan olgan bilimlari bilan bir qatorda, kompyuter savodxonligi, tanqidiy fikrlash, ijodkor va tashabbuskorlik, olgan bilimini hayotda qo'llay olish qobiliyatini ham rivojlantiradi. O'quvchilarning qaysi fandan bilim, ko'nikma va qiziqishlari yuqorilik darajasi ertaroq aniqlanadi. Bu esa ularni kelajakda to'g'ri kasb tanlashga yo'naltirishda yordam beradi [1].

"Yangi O'zbekiston – maktab ostonasidan boshlanadi", degan ezgu g'oya asosida bu sohada katta ishlar amalga oshirilmoqda. So'nggi yillarda yuzlab zamonaviy maktablar barpo etildi. Prezident maktablari, ijod maktablari hayotimizga kirib keldi, ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog'i kengaytirildi. Yangi darsliklar va o'quv qo'llanmalari yaratildi.

O'qituvchi va murabbiylarning mehnat sharoitlarini yaxshilash, malakasini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, o'tgan davrda muallimlarning oylik ish haqi o'rtacha 2,5 baravar oshdi. Jumladan, chet tili, axborot texnologiyalari, matematika, kimyo, biologiya bo'yicha milliy va xalqaro sertifikati bor o'qituvchilarga ustama, chekka hududga borib ishlagan

muallimlarga alohida to'lov joriy etildi. Natijada 6 million so'mdan 10 million so'mgacha maosh oladigan o'qituvchilar soni 23 mingga yetdi, 10 million so'mdan yuqori oylik oluvchilar 1 mingdan oshdi. Maktablar yuklamasini kamaytirish maqsadida 700 ming o'quvchi o'rni yaratildi. Bu – avvalgi yillarga nisbatan 15 baravar ko'p.

Bu esa, ta'lim sohasida islohotlar samaradorligini oshirish Yangi O'zbekistondagi islohotlarning kun tartibida turgan asosiy vazifaga aylandi. Buning uchun barcha imkoniyatlar ishga solinmoqda. Ta'lim tizimini kompleks rivojlantirish, malakali kadrlar tayyorlash maqsadlariga katta kuch va mablag'lar yo'naltirilmoqda. Soha rivojiga bo'lgan ana shunday e'tibor maktablarda o'quv-tarbiya jarayonlarini sifat jihatidan o'zgartirishga, o'qituvchilar tarkibini yaxshilashga xizmat qilmoqda. 2024 yilning I-choragi holatiga ko'ra O'zbekiston budjeti xarajatlarining 16 trillion so'mi (47,2 foiz) ta'lim tizimini muassasalarini saqlash va ularni rivojlantirishga sarflanmoqda. Shundan ham ko'rish mumkinki, yoshlarimizga yuksak mezonlar asosida ta'lim-tarbiya berish, ularda yangicha, innovatsion fikrlash qobiliyatini o'stirish bugungi kechiktirib bo'lmaydigan vazifaga aylanmoqda.

Baholash o'zi nima? Baholash bu – o'quvchining fanlarni o'zlashtirish darajasi va uning fikrlash doirasini, o'zining bilim va ko'nikmalariga asoslanib, ma'lum bir mavzuda ilmiy ravishda muhokama qila olishini, asosiysi, o'quvchida o'zlashtirish saviyasi necha foiz ekanligini ko'rsatib beruvchi jarayondir.

O'quvchilarning bilim saviyasi va o'zlashtirish darajasi quyidagi nazorat turlarini o'tkazish orqali baholanadi:

joriy nazorat — so'rovlar, nazorat ishlari yoki testlar tarzida o'quvchilarning bilimlari, ko'nikma va malakalari muntazam nazorat qilinadi;

oraliq nazorat — chorak tamom bo'lganda va o'quv dasturining tegishli bo'limi tugallangandan keyin o'quvchilarning bilimlari, ko'nikma va malakalarini baholash uchun amalga oshiriladi. U yozma nazorat ishi yoki testlar shaklida o'tkaziladi. Ushbu nazoratda foydalaniladigan materiallar o'quv fani o'qituvchisi tomonidan tayyorlanadi.

Bitiruvchilar uchun choraklik (yarim yillik) baholar asosida yillik baho, shuningdek yakuniy nazoratda olingan ball va yillik baho asosida **yakuniy baho aniqlanadi**.

Baholash – nafaqat o'zlashtirilganlik saviyasini, balki o'quvchilar ichida iqtidor va qobiliyatga ega bolalarni ham aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa, o'quvchilarni muntazam ravishda turli olimpiada va xalqaro tanlovlarda qatnashib, ko'pgina yutuqlarga erishishlari uchun zamin yaratibgina qolmay, kelajakda o'z kasbining yetuk bilimdoni, har sohada kerakli kadrlar bo'lishlari uchun poydevor yaratadi. Shuning uchun bo'lsa kerak maktabda o'qitish metodikasi o'zgarmasa, ta'lim sifati ham, mazmuni ham, muhit ham o'zgarmaydi, – dedi Shavkat Mirziyoyev [2].

O'quvchi bilimini baholashdagi muammolar. Rivojlangan mamlakatlarning maktab ta'limida ta'lim sifatini nazorat qilish va o'quvchilar bilimini baholash o'quv jarayonining tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Ta'lim oluvchining bilimini baholash tizimlarining maqsadi o'quvchiga materialni qanchalik o'rganganlik darajasini ko'rsatish va o'qituvchi faoliyati samaradorligini aniqlashdan iborat. O'quvchilarni bilimini baholashda turli hil mamlakatlarda o'nlab yondashuvlar mavjud.

Misol tariqasida umumiy holatda "baholash" tushunchasining ma'nosi va uning kompetensiyalarga qo'llanishiga nisbatan aniqlashtirilishi to'g'risida quyidagilarga e'tibor qarash lozim.

O'quvchilarning kompetensiyalarini baholash - o'quvchi faoliyatini tashkil etish va ma'lumotlarni yig'ish va oldindan belgilangan mezonlar asosida bu ma'lumotlarni tahlil qilib, xulosa chiqarish jarayonidir.

Modulni o'zlashtirishni baholash - har bir aniq modul (fan) bo'yicha topshiriqlarda shakllantirilgan va shu kompetensiya doirasida talab etiladigan barcha harakatlarni amalga oshirish mumkin bo'lgan, o'quvchi talab etilgan kompetensiyani o'zlashtirganligini namoyish etuvchi yoki tasdiqlashni o'z ichiga olishdir.

Baholash tamoyillari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- baholash mezonlarga asoslanadi;

- baholash taqdim etilgan ma'lumotlarga - aniq natijalarga asoslanadi;
- ma'lumotlarni yig'ish - butun o'qish davrida doimiy ravishda amalga oshirilib, oldindan belgilangan "nazorat nuqtalari"da kompetensiyalarni o'zlashtirish hamda yakuniy baholash jarayoni hisoblanadi;

- modulni o'zlashtirish barcha ma'lumotlar asosida, shu jumladan yakuniy baholash paytida taqdim etilgan ma'lumotlar asosida ishlab chiqiladi.

Kompetensiyani baholashni an'anaviy baholashdan farqi natijalarni mezonlar bilan taqqoslash hamda ta'lim oluvchilarni baholash jarayonida ishtirok etishi bilan farqlanadi.

Sifatli baholash belgilari quyidagilardan iborat:

haqqoniylik - baholash vositalari, ta'lim maqsadi hisoblangan kompetensiyani baholaydi. Baholashni o'tkazuvchi barcha baholanuvchi shaxslarni bir xil mezonlar asosida amalga oshiradi;

ishonchlilik - barcha ta'lim oluvchilarning natijalarini baholash uchun bir xil sharoit yaratiladi, bunda mexanik xotirani emas, mehnat faoliyatining aniq sharoitlarida bilimlardan foydalanish mahoratini tekshirish tushuniladi;

realizm - baholash usullari mavjud resurslarga muvofiq amalga oshiriladi;

moslashuvchanlik – baholash ta'lim oluvchining o'zlashtirgan kompetensiyalarini namoyish etishga tayyorgarligiga qarab amalga oshiriladi [3].

O'quvchilar bilimini baholash - o'quv jarayonining muhim tarkibiy qismi bo'lib, uning mohiyati quyidagi funksiyalardan iborat:

1. Tarbiyaviy. Ushbu funksiya doirasida o'quvchilarning bilim darajasini aniqlash, mavjud xato va kamchiliklarni tuzatish, shuningdek ularning oldinga intilishiga yordam beradi.

2. Rag'batlantirish. Ushbu funksiya avvalgisini to'ldirgan holda o'quvchilar uchun ilhom va motivatsiya beradi. Doimiy monitoring bilan o'quvchilar o'qishga qiziqishni yo'qotmasliklari, aksincha, o'z maqsadlari va rivojlanishiga intilishlari uchun sharoit yaratish muhim hisoblanadi.

3. Analitik va tuzatuvchi. Bunda pedagogik aks ettirish, o'qituvchilarning o'z faoliyatini tahlil qilish, o'quv jarayonini rejalashtirish va tashkil etish qobiliyati tushuniladi. Bundan tashqari bu funktsiyani o'quvchilarda qo'llash orqali ularni qiyinchiliklarni yengish qobiliyatini shakllantirish, shuningdek, o'quv va kognitiv faoliyat samaradorligini oshirish uchun ularning xatti-harakatlarini moslashishiga ko'mak beradi.

4. Tarbiyalash va rivojlantirish. Ushbu funksiya o'quvchida o'z-o'zini hurmat qilishni, maqsadlarga erishish istagini va ularning mas'uliyatini tushunishiga shuningdek, o'quvchining ijtimoiy nuqtai nazardan qimmatli qobiliyatlari shakllantirishga imkon beradi.

5. Nazorat. Ushbu funksiya baholashning bir qismi sifatida, yutuqlar darajasini birlashtirib, qabul qilingan qoidalar va standartlarga mos kelishi muhim hisoblanadi. Bundan tashqari, o'quvchi o'z rivojlanishini oshirish uchun yangi bilim va ko'nikmalarni egallashga intilishini oshiradi.

Ta'kidlash joizki, yuqoridagi funksiyalar dunyoning barcha mamlakatlarida bilimlarni baholash tizimida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Mutaxassislar ta'lim funksiyasini amalga oshirganda, o'quvchilar o'qish uchun qo'shimcha motivatsiya olishlari uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratish choralari ko'radilar.

O'qituvchi avvalo, o'z faoliyatini mustaqil ravishda boshqarish qobiliyati va istagini ta'kidlash, ya'ni, uni ma'lum bir standart bilan taqqoslash, tarbiyaviy harakatlar usuli va maqsadlarga erishish vositalari to'g'ri tanlanganligini tushunish, qaror qabul qilish bilan bir qatorda ishdagi xato va kamchiliklarni topish va ularning sabablarini tahlil qilishi ham muhim hisoblanadi.

Shunday qilib, bilimlarni baholash tizimi o'quvchilar va maktab muhiti o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishga imkon beradi. O'quvchilar o'z bilim va ko'nikmalarini sinab ko'rishga, o'z yutuqlari darajasini aniqlashga, o'z oldiga yangi vazifalar qo'yishga va ularni hal qilishga intiladigan o'quv jarayonining teng huquqli ishtirokchilaridir [4].

O'quvchilar bilimini baholashda turli mamlakatlarda balli, harfli va simvolli ko'rinishdagi tizimlardan keng foydalaniladi. Bugungi kunda eng keng tarqalgan balli tizimlarga 5 ballik, 10 ballik, 12 ballik va 100 ballik tizimlarni misol qilish mumkin.

Besh ballik tizim. "5" a'lo, "4" juda yaxshi; "3" yaxshi; "2" qoniqarli; "1" qoniqarsiz.

Bunday bilimlarni baholash tizimi dunyoning turli mamlakatlarida qo'llaniladi (misol uchun Germaniya, Chexiya, Avstriya, Slovakiya, Estoniya, Serbiya, Xorvatiya, Mo'g'uliston, Tojikiston, O'zbekiston va boshqalar). Bu mamlakatlarning ba'zilarida "5" eng yuqori baho bo'lsa, boshqalarida "1" eng yuqori baho deb qabul qilingan.

O'n ballik tizim. O'n ballik tizim hamma uchun tushunarli: ball qancha yuqori bo'lsa, shuncha yaxshi bo'ladi. Ushbu baholash tizimi Latviya, Litva, Moldova, Ruminiya, Italiya, Albaniya, Niderlandiya, Islandiya, Vyetnam, Meksika, Kolumbiya, Ekvador kabi mamlakatlarda qo'llaniladi. Nigeriyada ham bilimlarni baholashda o'n ballik shkala qo'llaniladi, ammo bu yerda ball qancha past bo'lsa, o'quvchining bilim darajasi shunchalik yuqori bo'ladi.

O'n ikki ballik tizim. Ushbu tizim Ukraina ta'lim muassasalari uchun xos bo'lib, 10, 11, 12-sinflar eng qobiliyatli o'quvchilar tomonidan beriladi.

Yigirma ballik tizim. Maktab o'quvchilarining bilimlarini baholashning bunday tizimi Gretsiyada litsey va gimnaziyalarda keng tarqalgan bo'lib, bu yerda ball butun son bo'lishi shart emas, masalan, 12,4 yoki 18,5 va h.k. bo'lishi mumkin.

Bunday tizim Fransiya uchun ham amal qiladi, ammo bu yerda 20 ball olish deyarli mumkin emas. Fransuzlar o'z mavzusini mukammal bilishi kerak bo'lgan o'qituvchilar 19 ballga loyiq ekanligiga ishonishadi. Yaxshi o'quvchilarning o'rtacha ballari 10 dan 14 gacha o'zgarib turadi.

Bundan tashqari, ushbu bilimlarni baholash tizimi Marokash, Eron, Livan, Tunis, Mali, Peru va Kongo Respublikasida ham amal qiladi.

Yuz ballik tizim. Bu tizim asosan Turkiya, Iordaniya, Iroq, Suriya, Yaman, Hindiston, Kuba va Misr kabi mamlakatlarda qo'llaniladi. Ba'zi mamlakatlarda bilimlarni baholash reyting tizimiga muvofiq amalga oshiriladi, bu ma'lum foiz hisob-kitoblarga to'g'ri keladi. Yuz ballik tizimning yorqin namunasi turk ta'limidir, bu yerda: a'lo – 85 dan 100% gacha; yaxshi – 70 dan 84% gacha; maqbul – 55 dan 69% gacha; qoniqarli – 45 dan 54 gacha; o'rtacha – 44% dan oshmaydi.

Yuqoridagi mamlakatlarda ma'lum bir o'tish ballari mavjud. Turkiyada 50 %, Hindistondagi o'qituvchilar 35 % yetarli deb hisoblashadi, ammo Kuba jiddiyroq talablar qo'yadi, bu yerda o'quvchi maktab o'quv dasturini kamida 70 % bilishi kerak [4].

Afsuski, O'zbekiston maktablarida sovet davridagi 5 baholik tizim 100 ballikka va keyinchalik yana 5 ballikka qaytarildi, lekin ba'zi maktablar, jumladan Prezident maktablarida 100 ballik tizim asosida o'quvchilar bilimi baholanadi. Baholash tizimining ijobiy tomonlari bilan bir qatorda uning salbiy tomonlari ham mavjud.

Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi Nizomda boshlang'ich ta'lim o'quvchilarda o'qish, yozish, sanash, o'quv faoliyatining asosiy malaka va ko'nikmalari, ijodiy fikrlash xislatlari, o'zini-o'zi nazorat qilish, nutq va xulq-atvor madaniyati, shaxsiy gigiyena va sog'lom turmush tarzi asoslarini egallashni ta'minlashga yo'naltiriladi deb ko'rsatib o'tilgan. Ushbu Nizomning 4-bob, 34-bandda Umumta'lim muassasalarining V-XI sinflar o'quvchilari tegishli fanlardan bosqichli nazoratlarni muvaffaqiyatli topshirganlaridan so'ng keyingi sinfga o'tkazilishi qayd etilgan [5]. Ammo boshlang'ich sinf o'quvchilarini baholash turlari va baholash mezonlari hamda boshlang'ich sinflar qaysi mezonlar asosida sinfdan-sinfga ko'chirilishi qayd etilmagan.

Maktab o'qituvchilari bilan olib borilgan suhbat asnosida shu narsa ma'lum bo'ldiki, o'qituvchilar baholash usullari, baholash mezonlari va baholash vositalari to'g'risida yetarli ma'lumotga ega emas. O'qituvchilar uchun bugungi kunda ortiqcha qog'ozbozlikni oldini olish maqsadida yaratilgan elektron jurnal <https://kundalik.com/> ni o'quvchilarni bilimini baholash vositasi sifatida tasniflamoqda. Afsuski bu hech qanday vosita emas, balki o'quvchilarni davomati va o'zlashtirish ko'rsatkichlari o'qituvchi tomonidan qo'yilgan va respublika bo'yicha umumiy statistikani aniqlashga xizmat qiladi, lekin o'quvchilar qobiliyati va iqtidorini oshirishga xizmat qilmaydi [6].

O'quv jarayonida ta'lim natijalari nazorat qilish va baholash metodlari. Bu masalada biz [7] ish muallifining tadqiqotlariga tayangan holda o'quv jarayonida o'quv natijalarini baholashni nazorat qilishning an'anaviy va yangi usullarining afzalliklari va kamchiliklari muammolariga to'xtalamiz.

Nazoratning maqsadi bilim sifatini baholash, o'quv jarayonining keyingi rivojlanishini

prognozlash hamda moslashishi (tuzatish) uchun axborot olishdan iboratdir. Nazoratni tashkil qilishda bu jarayonning o'ziga xos nazariy-metodologik xususiyatlarini bilish va hisobga olish kerak bo'ladi. Nazorat bosqichi turli xil nazorat usullarini o'tkazishni tanlash bilan belgilanadi. Nazorat metodlari - bu ta'limning muvaffaqiyati va o'quv jarayonining samaradorligi to'g'risida ma'lumot olish uchun o'quv jarayonida fikr-mulohazalarni ta'minlaydigan usullardir.

Zamonaviy didaktika og'zaki, yozma, amaliy, kuzatish metodi va test o'tkazish usullarini ajratib turadi. Ba'zi bir olimlar grafik, amaliy, laboratoriya va dasturlashtirilgan nazorat metodlarini (Y.K.Babanskiy) va portfolio metodini ajratadilar [7].

1. Og'zaki nazorat metodi, yozma usulga nisbatan, uzoqroq tarixga ega. U o'rta asrlarda maktablarda disput (bahs-munozara) shaklida paydo bo'lgan. Og'zaki nazoratning asosini nutq yoki suhbat tashkil etadi. Individual so'rash o'zlashtirish darajasi to'g'risida yanada to'liqroq va aniq ma'lumotlarni olish imkonini beradi. YE.I.Perovskiy, og'zaki tekshirish metodlarini tahlil qilib ushbu metodning asosiy afzalligi tekshiruvchi va javob beruvchi o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri jonli aloqani amalga oshirishini ta'kidlaydi. Tekshiruvchi barcha vaqt davomida ishni bajarish fikrini kuzatishi mumkin va buning natijasida uning bilimi nisbatan bo'lgan barcha shubhalarni osongina va o'z vaqtida bartaraf etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Har bir og'zaki javob og'zaki nutq mashqidir, ya'ni bu usul katta rivojlanish effektiga ega. Ammo, og'zaki tekshirish metodining tabiatida uni ishlatishni juda qiyinlashtiradigan xususiyatlar mavjud. Eng avvalo, og'zaki nazorat va baholashda aniqlash o'lchovini tenglashtirish qiyin hisoblanadi. Ushbu o'lchov turiga savollarni misol qilib keltirish mumkin, ularni esa hamma uchun bir xil (teng) qilib bo'lmaydi.

YE.I.Perovskiy ikkinchi salbiy xususiyatni javoblarni takrorlash va batafsil tahlil qilishning imkoniyati yo'qligi deb hisoblaydi, bu shubhasiz, baholash sifatini pasaytiradi. K.Ingenkamp omillarni tadqiq etishni tahlil qilib, og'zaki tekshirish natijalarini bahoga ta'sir qiluvchi uchta omilni aniqladi. Og'zaki tekshirishda bahoga quyidagilar ta'sir qiladi: javoblar ketma-ketligi (kuchsizdan keyin kuchliga yoki aksincha), o'quv natijalari haqidagi dastlabki ma'lumotlar, o'qitish sur'ati. Keyingi salbiy xususiyat uning asab tizimiga hayojonli ta'siridir. Muallif ta'kidlaydiki, og'zaki tekshirish obyektivlikka, haqiqiylikka va ishonchlilik talablariga javob bermaydi. Og'zaki nazorat va o'quv natijalarini baholashning kamchiliklarini ta'kidlab, tadqiqotchilar salbiy ta'sirni kamaytirish yo'llarini ko'rsatmoqdalar.

K.Ingenkamp ushbu tekshirish usuli faqat nutqning to'g'riligi va ifodaliligini, turli nutq vaziyatlarida o'zini tutish qobiliyatini tekshirish zarur bo'lganda, talabalarning nutqini rivojlantirish bilan bog'liq ko'nikmalarni sinash uchun ishlatilishi kerakligini ta'kidlaydi. Og'zaki nazoratga tayyorgarlik suhbatning tuzilishini, faktlarning ta'riflarini, assimilyatsiyaning ma'lum darajasini tavsiflovchi dalillarni o'z ichiga olishi kerak. Shunday qilib, og'zaki nazorat tinglovchilarning bilimlarini aniqlashga, ularning materialni taqdim etish mantig'ini kuzatishga, jarayon va hodisalarni tasvirlash yoki tushuntirish uchun bilimlardan foydalanish qobiliyatiga, o'z nuqtai nazariningizni ifoda etish va isbotlashga, noto'g'ri fikrni rad etishga va h.k.larni aniqlashga imkon beradi.

2. Yozma nazorat metodi yozma topshiriqlarni (mashqlar, nazorat ishlari, insholar, hisobotlar va boshqalar) bajarishni o'z ichiga oladi. YE.I.Perovskiy o'zining monografiyasida pedagogik jamiyat tomonidan ushbu nazorat usulini tan olish bosqichlari ko'rsatilgan. Har qanday yozma ish o'zidan keyin tekshiruvchida ma'lum bir hujjatni qoldiradi va bu nazorat va baholashni puxta bo'lishini ta'minlaydi. Qayta tekshirish imkoniyati nazorat natijasi va baho sifatida o'qituvchida baholash ma'suliyatini oshiradi. Yozma tekshirishda bilimlarni aniqlash o'lchovlari tengligini osonlikcha amalga oshirish mumkin, bu baholashning adolatligini oshiradi. Tadqiqotchilar yozma nazorat metodining savol-javob ko'rinishida ikkita kamchiligini ta'kidlaydilar: o'qituvchi va o'quvchi orasida jonli muloqotning bo'lmasligi, bu tekshiruvchi masalani yechish jarayonini kuzatish imkoniyatidan mahrum etadi; fikrlarni bayon etish jarayonini yozma ifodalashning qiyinligi; bular o'quv yutuqlari baholarini taqqoslash imkoniyatini bermaydi. Ushbu nazorat metodi bir vaqtning o'zida barcha ta'lim oluvchilarning bilimlarini tekshirishga imkon beradi, lekin yozma topshiriqlarni tekshirish uchun ko'p vaqt talab etiladi. Nazorat yozma ishlarining afzalligi shundaki, u o'qituvchiga tekshiriladigan mavzu bo'yicha o'quvchining aqliy rivojlanish darajasi, savodli

yozish va hisoblash ko'nikmasi, mustaqil ishlash mahorati, shuningdek, barcha zaif va kuchli tomonlariga baho berish imkoniyatini beradi.

3. Amaliy va grafik nazorat metodi ko'pgina o'quv fanlarida qo'llanilishi bilan cheklanadigan o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ular faqat yozma va og'zaki nazorat bilan birgalikda qo'llaniladi. Masalan, fizika fanida amaliy vazifa sifatida elektr zanjirida ba'zi asbob va o'quv qurilmalarini ketma-ket va parallel ravishda ulashni amalga oshiradi; kimyo fanida berilgan kimyoviy moddalarni qo'shish (birlashtirish) orqali kislotaga yoki gidroksid oladi; biologiya fanida urug'larning o'xshashligini aniqlaydi va boshqalar.

4. Dasturlashtirilgan nazorat metodi, u dasturlashtirilgan ta'limga bevosita bog'liq bo'lib, bu yerda nazorat o'quv jarayonining ajralmas qismi sifatida qaraladi. Dasturlashtirilgan ta'limda, o'zlashtirilishi lozim bo'lgan barcha materiallar qismlarga bo'linadi, bo'laklarga ajratiladi (qadamlar, kvantlar, bosqichlar). Ular bir-biridan ketma-ketlikda o'rganiladi. O'qituvchi dasturlashtirilgan nazoratni turli darslarning boshida ham, oxirida ham darslarning mustaqil elementi sifatida foydalanadi. Ammo bu holatlarda tekshirish funksiyasi ustuvorlik qilib, teskari aloqa funksiyasi kamroq namoyon bo'ladi. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan kompyuterlar qo'llanilishi asosida nazorat osonlashadi. Dasturlashtirilgan nazorat o'quvchilar va o'qituvchilarning vaqtini tejaydi. Nazorat qiluvchi mashinalar yordamida bilimlarni o'lchash va baholashda yagona talablar osongina o'rnatiladi. Nazorat natijalari osongina statistik ishlov beriladi. Bilimni baholashda o'qituvchining subyektivligi bartaraf etiladi. Nazorat qiluvchi mashinalaridan foydalanish o'zin-o'zi muvaffaqiyatli nazorat qilish imkonini beradi. O'z-o'zini nazorat qilishda mashinalardan foydalanmaslik ham mumkin. Ammo buning uchun ta'lim oluvchilarni mustaqil ravishda o'rgatish zarur, xatolarni topish, kognitiv vazifalarni noto'g'ri hal qilish sabablarini tahlil qilish, ularni bartaraf etish yo'llarini izlash zarur. V.S.Avanesov, V.P.Bespalko, V.M.Sokolov, A.O.Tatur va boshqa tadqiqotchilar ko'rsatishdiki, an'anaviy ta'lim nazorat shakllari har doim ham obyektiv, haqiqiy va ishonchli nazorat metodlari bo'lavermaydi. Baholashning subyektivligi, tekshirish natijalarining takrorlanmasligi didaktik jarayonda real, va ishonchli nazorat metodi, va ularni takomillashtirish yo'llari – asosiysi, an'anaviy usullar bilan pedagogik nazoratning nomukammalligini belgilaydi.

Shunday qilib, o'quvchilarning o'zlashtirishini nazorat qilishning an'anaviy metodlari ma'lum kamchiliklarga ega [7]:

1) pedagogik faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq qiyinchiliklar asosan quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- turli o'qituvchilarning talablari o'rtasidagi tafovutning mavjudligi, ularning bir xil javobni baholashdagi qat'iylik darajasidagi farqlar;

- kasbiy malakadagi farqlar; - pedagogning muntazam ish bilan bandligi, katta miqdordagi ma'lumot bilan bog'liqlik, bu nisbatan qisqa vaqtda bajarilishini talab etadi;

-o'qituvchining o'quvchilar javoblarini baholashdagi xolislik (psixologik va boshqa sabablarga ko'ra);

-bilimlarni tekshirishdagi an'anaviy shaklining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq qiyinchiliklar: -aniq shakllantirilgan bilim standartlarining mavjud emasligi va har bir ijobiy baho uchun yetarlicha aniq belgilangan mahorat hajmining belgilanishi (ba'zida o'qituvchi baholashni aniqlashda qiynaladi);

2) shpargalkadan foydalanish, imtihonda "o'zaro yordam" (ko'chirish)dan foydalanish, o'quvchilar bilimini baholashning haqqoniyligining ishonchliligini buzish va pedagogga o'zining o'quv ishiga obyektiv qarashiga xalaqit qilish;

3) obyektiv baholash mezonlari va o'quv natijalarini taqqoslash mexanizmlarining mavjud emasligi. Biletidagi 3-4 savollar bo'yicha imtihon qabul qilish metodikasi materialni to'liq o'zlashtirishni baholashga imkon bermaydi va ko'chirib olishni proavkatsiya qiladi. Hozirgi bosqichda o'quvchilar bilimini baholashda sanab o'tilgan muammolar asosan test nazorati, portfolio metodi bilan hal qilinadi.

5. Portfolio metodi. Portfolio yordamida o'quvchilarning yutuqlarini tekshirish shakli qo'llaniladi (ital. portfolio-hujjatlar papkasi). Ushbu metod o'quvchilarni o'qish davrida o'quv-

bilish, ijodiy, kommunikativ va boshqa turdagi faoliyatlarini tanlash, belgilash va baholash, moddylashtirilgan mahsulotlarini tanlash, qayd etish imkonini beradi, nafaqat baholash, balki o'zini-o'zi baholashni, hamda ta'lim oluvchi shaxsini, uning qiziqishlari, moyilliklari, taraqqiyoti va turli sohalaridagi yutuqlarini ifodalaydi. Bu metodni amalga oshirishning ko'plab shakllari mavjud: yutuqlar portfoliyasi, sharhlar portfoliyasi, yevropa tillari portfoliyasi, o'quvchi o'zi o'zi bilimini baholashi, ushbu sohadagi mahorati, qaysi bosqichda ekanligini aniqlash, mustaqil ta'lim olish strategiyasini belgilash. To'plangan hujjatlar doirasi o'quv maqsadlaridan bog'liq bo'ladi. To'plangan ma'lumotlarning natijasi o'quvchining pasporti bo'lib, u akademik bilimlarni, o'quv jarayonida olingan bilimlarni ko'rsatadi. Portfolioni amalga oshirish juda qiyin. Shu sababli bu faoliyat o'qituvchidan ijtimoiy tayyorgarlikni, ko'p vaqt va mehnatni talab etadi. Shu bilan birga, bunday yondashuv bilimlarni tekshirish va baholashning an'anaviy tizimini yanada rivojlantirish yo'nalishlarini, turli xil nazorat metodlarini qo'shib olib borish maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi.

6. Test nazorati. V.S.Avanesov ta'kidlaganidek, ta'lim oluvchining faoliyati va bilimini baholashning test metodini an'anaviy usullardan farqi, testning o'zi o'lchov shkalasidir. Shkalaning o'zi sonli tizim bo'lib, unda turlicha obyektlar o'rtasidagi munosabatlar raqamli qatorlar xususiyatlari bilan ifodalanadigan tizim hisoblanadi. Elementar o'lchov birligining rolini bilim darajasini aniqlash uchun tanlangan nazorat topshiriqlar bajaradi. O'lchash paytida olingan sonlar o'rganilayotgan hodisalarning mohiyatiga chuqurroq kirishga imkon beradi, bu ayniqsa test nazoratini ilmiy asoslangan shakllantirish uchun muhimdir. Pedagogik testlar, pedagog va o'quvchi hamkorligi sharoitida o'quv natijalarini nazorat qilish tizimini takomillashtirish orqali ta'lim sifatini oshirishning istiqbolli yo'nalishlarini ochib beradi. Asoslangan, maqsadga yo'naltirilgan an'anaviy va test nazorati metodlarining birgalikda qo'llanilishi o'quv jarayonini boshqarish samaradorligini oshiradi. Test nazorati test o'lchash vositasi, pedagogik testlardan samaradorlikni obyektivlashtirish vositasi sifatida foydalanish tartibi, algoritmi, usullari, o'quv darajasini o'lchashning vakilligi, talabalarning tayyorligi; dasturiy ta'minotni ishlab chiqish, test natijalarini talqin qilish kabi zaruriy elementlarni o'z ichiga kiritishi kerak. Test nazorati tizimiga va uni tuzilishiga, nazaratning tamoyillariga amal qilish kerak bo'ladi. Y.Y.Kolesnikov o'zining tadqiqotlarida test nazoratining quyidagi afzalliklarini ajratadi: nazoratning individual tabiati; muntazam tizimli nazorat; boshqa an'anaviy nazorat shakllari bilan kombinatsiyalanishi; keng qamrovlilik; obyektivlik; har bir o'quv predmetining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish; sinaladigan o'quvchining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish; test nazoratini standartlashtirish; yuqori ishonchlilik; yuqori prognostik haqqoniylik; yakuniy attestatsiya testlarining yuqori mezonlik haqiqiyli; rag'batlantirish; kompyuter adaptivlik testining zamonaviy texnologiyalarini qo'llash.

Kamchiliklarga quyidagilarni kiritish mumkin: taxmin qilish miqdorining katta foizligi; amaliy faoliyatni qisqartirilishi; nazorat-o'lchash vositalarini birlamchi sifatli tayyorlashga sarflangan sezilarli vaqt; yaxshi test yaratishning nisbiy qiyinchiligi, empirik sinovdan o'tgan, validlik koeffitsiyenti va ishonchliligi barqaror bo'lgan; test o'tkazish vaqtida ta'lim oluvchi bilan dialog o'tkazish imkoniyatining mavjud emasligi va h.k.

Yuqoridagi kamchiliklarga qaramay, test nazorati ko'plab o'qituvchilar tomonidan o'quvchilar bilimini nazorat qilishning samarali vositasi sifatida tan olingan, va uni takomillashtirishda innovatsion an'alardan foydalanish taklif qilingan [7].

Bizning fikrimizcha, o'quv jarayonida yuz beradigan o'zgarishlar sharoitida, axborot texnologiyalaridan foydalanish ulushi ortib borishi, axborot resurslaridan foydalanish uchun yangi imkoniyatlarni paydo qilmoqda, axborot bilan ishlash usullari o'zgarib borayapti, yangi yagona o'quv jarayoni shakllanayapti. Shu sababli, nazorat-baholash tizimini qayta ko'rib chiqish jarayoni ketmoqda, baholash va nazoratning roli oshmoqda. Shunday qilib, ta'lim yutuqlari sifati va pedagogik nazorat sifatining oshishi o'quv jarayoniga rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalarini joriy etish samaradorligi, ta'limni tabaqalashtirish va individuallashtirish, o'qitish natijalarini nazorat va baholashning yangi metodlari imkoniyatlariga asoslanganligi bilan bog'liq [7].

"Bilim tarozisi" Toshkentda ham, Termizda ham, Nukusda ham bir xil, ya'ni, ekvivalent bo'lishiga erishish kerak. Talaba(o'quvchi) bilimini va oliy ta'lim muassasasi ko'rsatayotgan ta'lim

sifatini baholash davlat ta'lim siyosatining asosiy funksiyasiga aylanishi kerak. O'qituvchi tomonidan talabaga muayyan fan bo'yicha berilgan bilim va malaka hamda talaba bilimni haqqoniy va adolatli baholash orqali professor-o'qituvchining ta'lim xizmati sifati to'g'risida xulosa chiqarish mumkin. Shu sababdan ham nufuzli xorijiy universitetlarda o'qituvchi beradigan bilimning validligiga asosiy e'tibor qaratiladi. Bir fan dasturi bo'yicha turlicha bilim bergan va shuningdek, turlicha baholash talabalarning norozichiligiga sabab bo'lmoqda. Boshqacha aytganda, O'zbekiston Milliy universitetida tajribali professorning qo'ygan bahosini shu fan bo'yicha ilmiy salohiyati bir necha marta past bo'lgan oliy ta'lim muassasasining dotsenti qo'ygan bahoni ekvivalent (validlik darajasi bir xil) deb aytish qiyin.

Xulosa va takliflar. O'quvchi (talaba) bilimini, hozirgi vaqtda ta'lim atamasiga sifatida qabul qilingan kompetentligini aniqlashda test usuli ham, yozma ish usuli ham to'liq baholay olmaydi. Chunki, test usulida tabiiy fanlar, xususan fizika va texnika fanlari bo'yicha o'quvchining mahorati va ko'nikmasini aniqlash imkoniyati o'ta past, yozma variantda esa talaba yoki o'quvchi oldindan tayyorlangan 200-250 ta savoldan atiga 5 tasiga, ya'ni 40 -50 dan bir qismiga javob berib, butun kurs bo'yicha asosan nazariy bilimni baholanishi salbiy holatdir. Og'zaki javob berishda esa o'quvchi bilet savollaridan tashqari o'qituvchining qo'shimcha savollarga javob berishi orqali o'zining mahoratini hamda u yoki bu fizikaviy qonuniyatlarni amaliyotda qo'llanishini o'zining so'zlari bilan tushuntirish va notiqligini namoyish etishi bilan alohida o'rin tutadi. Talaba (o'quvchi)ning fan doirasida egallagan mahorati va ko'nikmasi o'qituvchi mustaqil ta'limni baholash jarayonida maxsus topshiriqlarni bajarishi yoki biror-bir fizik asbob-uskunaning parametrlarini takomillashtirishga yo'naltirilgan loyiha ishlarini bajarish orqali baholanadi.

O'quvchini yaxshi bilim olishga motivatsiyani shakllantirishning yana bir mexanizmi sifatida imtihon savollarini uch guruhga (qiyinchilik darajasiga qarab) bo'lish deb hisoblaymiz. Bunda muayyan fan (yoki modul) bo'yicha o'quvchi bilimni baholashda o'quvchi bilishi lozim bo'lgan eng kam shartlar asosida imtihon savollari tuziladi va bu o'tish bali yoki qoniqarli deb hisoblanadi. Yaxshi va a'lo baho olish uchun o'quvchi shunga mos imtihon savollariga javob berishi kerak bo'ladi. Qoniqarli baho olgan o'quvchi xohishiga ko'ra yaxshi baho olish imtihonini topshirish mumkin, xuddi shuningdek, yaxshi baho olgan o'quvchi esa a'lo baho imtihonini topshirishi mumkin. Yakuniy baho sifatida oxirgi baho qo'yiladi. O'quvchi qoniqarli baho olib, boshqa imtihon topshirishni istamasa yakuniyga shu baho qo'yiladi. Bu holat o'quvchini o'z ustida ishlashga majbur etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ta'lim: baholash mohiyatiga nazar // <https://uza.uz/uz/posts/talim-baholash-mohiyatiga-nazar?q=%2Fposts%2Ftalim-baholash-mohiyatiga-nazar>.
2. Shavkat Mirziyoyev raisligida 2020 yil 30 oktabr kuni bo'lib o'tgan mamlakatimizda ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirish masalalari muhokamasi bo'yicha videoselektor yig'ilishi. <https://president.uz/uz/lists/view/3924>.
3. Сазонова З.С., Ткачев Т.М. Инженерная педагогика: проблемы подготовки преподавателей технических дисциплин в условиях инновационного образования: монография. М.: ТКТИ, 2013.-192 с.
4. Скороглядова И.Г. Системы оценивания знаний в странах мира: цифры, буквы и не только. <https://solncesvet.ru/blog/baza-znaniy/sistemy-ocenivaniya-znaniy-v-stranah-mira/>
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 2017-yil 15-martdagi 140-son qarori.
6. Mansurov M., Mamataliyev A. Maktab o'quvchilarni baholashning jahon tajribasi va O'zbekistonda baholashning ayrim muammo va kamchiliklari bo'yicha mulohazalar. www.pedagoglar.uz Volume-83 , Issue-1, July-2023.
7. Жунусакунова А.Д. Методы контроля и оценки результатов обучения в учебном процессе / Молодой ученый. — 2016. — № 20.1 (124.1). — С. 26-29. — URL: <https://moluch.ru/archive/124/28564/>.